

**MAKTABDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA PSIXOLOGIK KORREKSION
ISHLARNI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Begimov Anvar Qudratovich

Qashqadaryo viloyati Muborak tuman

33-maktab psixologi 914574025

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda psixologik diagnostika va psixologik korreksiyani amalga oshirish muammolari va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Psixologik diagnostika o'tkazishdagi mavjud to'siqlar va bartaraf etish, psixokorreksiyani amalga oshirish uchun tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologik xizmat, psixologik korreksiya, diagnostika, psixodiagnostika, psixologik test, psixologik treninglar, metodika, diagnostikkorrektcion ishlar, bolalar o'smirlik.*

Abstract: *This article discusses the problems and prospects of psychological diagnostics and psychological correction in Uzbekistan. Existing barriers to psychological diagnosis and elimination, recommendations for psychocorrection.*

Keywords: *psychological services, psychological correction, diagnostics, psychodiagnostics, psychological testing, psychological training, methodology, diagnostic and correctional work, children and adolescents.*

KIRISH

Yurtimizda keyingi yillarda psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

ASOSIY QISM

Dastlabki davrda Oliy ta'lif muassasalarida "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlangan bo'lsa, so'nggi yillarda "Amaliy psixologiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ushbu ixtisoslik bo'yicha magistratura bosqichiga qabul kvotalari keskin oshirildi. Biroq, ta'lif muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu borada olib borilayotgan sayi-harakatlarga qaramasdan o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar ham mavjud. Biz kuzatishimiz natijasida umumiyl o'rta ta'lifda psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun bir necha muammolar xalaqit beradi.

Jumladan, maktabda: - psixolog bolalar bilan faoliyatni kunning qaysi vaqtida amalga oshirilishi lozimligi haqida hozirgacha aniq ko'rsatma mavjud emas;

- kunlik mashg'ulotlar jadvalida psixolog uchun alohida vaqt ajratilmagan;
- ota-onalar uchun psixologik maslahatni qaysi payt amalga oshirish kerak?

Maktab psixologgi ish rejasini tuzishda quyidagi maqsadlarni belgilab olishi maqsadga muvofiq: a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga moslashtirishdagi psixologik muammolar;

b) maktabda o'qituvchi va psixologning hamkorligi;

c) maktabda iqtidorli bolalar bilan ishlash;

e) maktab psixologgi ishlarni rasmiylashtirish, hujjatlar bilan ishlashda axborot texnologiyalarining o'rni.

Maktablarda psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun to'siq bo'layotgan omillar bor. Masalan, maktab fanlariga psixologiyaga oid fan kiritilmagan yoki psixolog uchun alohida soat ajratilmagan. Shuning uchun psixolog psixodiagnostik ishlarni amalga oshirishda, psixologik trening mashg'ulotlarni o'tishda qaysidir fan mashg'ulotini buzishga majbur bo'ladi. Yuqorida keltirilgan muammolarni umumiy xusususiylikka o'tib nazar tashlasak vaziyat yanada oydinlashadi:

Psixologik diagnostikani samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

- a) psixologik diagnostika uchun metodika va testlar bankini ma'naviy eskirganligi;
- b) psixologik diagnostika uchun ko'p vaqt talab etilishi;
- c) topshiriq qismlarini o'quvchilar uchun zerikarligi;
- d) amaliyotchi psixologning amaliy tajribasi kamligi yoki yo'qligi va hokazolar.

Psixologik korreksion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham bir qancha sabablar bor:

- korreksion dastur ko'p vaqtini talab etishi;
- natijalarini yaqqol ifodalanmasligi
- korreksion ishga o'quvchilarni salbiy munosabatda bo'lishi;
- milliy va etnik xususiyatlar;
- maktab dars jadvalida alohida vaqt ajratilmaganligi va boshqalar.

Bugungi jadallashgan davrda davrda o'quvchi-yoshlarni ruhiy salomatligini asrash har qachonidan muhimroqdir.

Ta'lim muassasasidan psixologik diagnostika va psixologik korreksyon faoliyatni yaxshilash quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Diagnostik maqsadda o'tkaziladigan metodikalarning kompyuter va axborot texnologiyalariga o'tkazish va yangi avlodini ishlab chiqarish lozim.

2. Ularni o'tkazish va natijalarini tahlil qilishda etnik xususiyatlarini, milliy mentalitetni hisobga kerak.

3. Bilish jarayonlarini tekshirishda ayni paytni hamda tashqi omillarni hisobga olish zarur.

4. Respublika miqyosida rasmiy tasdiqlangan metodikalar bankini yaratish maqsadga muvofiq.

5. Korreksion mashg'ulotlarni ham milliylikka moslashtirish zarur. Chunki ko'p trening-mashg'ulotlar o'g'il-qiz aralash ishtirok etishini taqazo qiladi. Bunda ko'pincha

o‘quvchi qizlar tortinadi va qatnashmaydi. Bundan tashqari psixolog uchun korreksion mashg’ulotlar uchun alohida xona ajratilishi juda ham ijobiy natijalar beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixologik xizmat ham murakkab va ko’p qirrali jarayon. Bu sohadagi rivojlanishlarga jiddiy e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 472-son qarori. T.: 2019-yil
2. M.S.Bannayev. O‘zbekiston muktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. Science and education. Volume 2, issue 7. 07.2021. 293-297-betlar